

Science
Conference
2026

13–14 Feb 2026

International **scientific and practical conference**

- 1. Scientific technologies**
- 2. Economy**
- 3. Finance**
- 4. Mathematical analysis**
- 5. Technical sciences**
- 6. Pedagogy**
- 7. Psychology**
- 8. Philosophy**
- 9. Natural Sciences**

zenodo



OpenAIRE | EXPLORE



www.d-pressa.com

International scientific and practical conference

Part 1
February 2026

Collection of Scientific Works

© International scientific and practical conference. 2026.

BARAKA HIKMATLARI

Ismoilov Sobirjon To‘rabekovich

GulDU dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada baraka tushunchasining mazmun-mohiyati va talqinlari, baraka omillari, manbalari hamda barakani ketgazuvchi jihatlar oyatlar, hadislar, hikmatlar, maqollar va ulamolar talqinlariga asoslanib ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: baraka, qut, fayz, barakalloh, Alloh, Qur’on, maqol.

Kirish. Ko‘pchilik o‘z hayotimizda ko‘p bora “baraka”, “bor baraka”, “bob baraka”, “barakallox” kabi so‘zlarni eshitgan va “baraka topgur” duosini olgan. Avvalo shuni aytish kerakki, baraka Allohdan. Uni qaerga va kimga tushiradi faqat uning o‘ziga ayon. Ushbu maqolamiz Qur’on oyatlari, hadislar, o‘zbek halq maqollari va ba’zi asarlar asosida 32 baraka omillari haqida mulohaza yuritdik.

Adabiyotlar tahlili. *Avvalo “baraka” tushunchasi haqida.*

Bu bora adabiyotu, lug‘atlarda o‘qiymiz: Baraka so‘zining arab tilida bir nechta ma’nosi bor¹²: -ko‘payish va o‘sish, -biror narsaning bardavom, to‘xtamay kelishi va barakaning yana bir ma’nosi tuyalar bilan bog‘liqdir. Arablar tuyaning tizzalashi yoki cho‘kishini ham “baraka” deyishadi.

Baraka¹³ - bir-biriga qo‘shilib o‘sgan ikki va undan ortiq qo‘shaloq meva. Baraka novdaning aynan bir bo‘g‘inida hosil bo‘lgan ikki yoki uch gulbandning bir-biriga to‘liq qo‘shilib rivojlanishi oqibatida sodir bo‘ladi. Baraka ko‘pgina qishloq xo‘jalik ekinlari, jumladan, paxta, pomidor, kartoshka, bodring, qovun va boshqa shuningdek mevalarda ham ko‘p uchraydi.

Baraka¹⁴ - mo‘llik, farovonlik, xayr-ehson, Xudoning‘ marhamati tufayli noz-ne‘matning‘ ko‘payishi, to‘kinlik. “Dehqonlar har erda qilsalar harakat elga ham qut etkarurlar, ham barakat” (Navoiy). Barakada xushnudlik, fayzu futuh, ziyodalik ma’nolari ham bor. Shuningdek baraka so‘zi duo, oq fotiha, yaxshi tilak, rozi-rizolik, osoyishtalik, qo‘llab-quvvatlash ma’nolarida ham qo‘llanadi.

Qut¹⁵-boylik, baxt, seroblik, samara, farovonlik.

Fayz¹⁶-o‘ziga jalb qiladigan, jozibadorlik, ilqlik, ko‘rk, issiq.

Shu ma’noda “baraka” va “fayz” arabcha, “qut” turkcha tushunchalardir. Biz ko‘pincha ularni: baraka, fayzu-baraka, qut-baraka, hayry--baraka shaklida yozma va og‘zaki nutqimizda qo‘llaymiz.

O‘zbekona aytganda , baraka - “to‘kinlik”, “to‘kin sochinlik”, “hurramlik”, “dorulomonlik”, “ma’murlik”, “fayzlilik”, “faraxbaxshlik” demakdir.

¹² <http://old.muslim.uz/>

¹³ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. I жилд. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2000. 624-бет.

¹⁴ Маънавият асосий тушунчалар луғати. -Т.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти, 2021. 69-бет.

¹⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томли. II -том. С-Я. –Москва: “Рус тили” нашриёти, 1981. 625 бет.

¹⁶ Ўша асар, -бет.

Internet saytlarida ko'p o'rinda keltirib o'tiladigan, baraka haqidagi 29¹⁷ banddan iborat ma'lumotlarni 23 tasida uni "keltiradigan" jihatlar:

-Taomni birgalikda eyish (Ibn Moja); -Bismilloh bilan eyilgan taom (Ibn Moja); -Baraka ovqatning o'rtasiga tushishi (Termiziy); -Saharda va saharlik taomi (Tabaroniy); -Taomdan oldin va keyin qo'llarni yuvish (Shuyba); -Asal (G'ofilin); -Sirkada, sutda, xurmo (Ibn Moja); -Rizqiga rozi bo'lishlik (Ahmad); -Tijorat (Buxoriy); -Buyuklar (Rafiiy); -Birinchi bolasining qiz bo'lishi (ibn Asokir); -Qiz bola (Daylamiy); -Salom berish (Harotiy); -Duo (Termiziy); -Qur'on o'qish (Dorimiy); -Musofirni kelishi (Nisobul axbor); -Uyidan vaqtli chiqish (Bazzor); -Yo'lcini duosi (Daylamiy); -Ota-onasiga xizmat (Islom axloqi); -Muhammad ismli uy (Daylamiy); -Bomdod namozi (Imodu islom); -Namoz (Kutubi Sitta); -nonda (Ibn Moja) baraka bor deyiladi.

Va 6 tasida uni "ketkazadigan" jihatlar: -Qaynoq ovqat (Daylamiy); -qasam ichish (Muslim); -Bolasiz uy (Abushayx); -Uyda chiqindilarning bo'lishi (Daylamiy); -Fosiq va sudxo'rlik (Daylamiy); -Bir jamoada biri gapirib turganda qolganlari tinch turmasligi (Bayhaqiy) barakasizlikka olib kelishi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Mavzu uyzasidan e'lon qilingan O.Isoqovning "Baraka nima o'zi?"¹⁸ maqolasida baraka tushunchasini mohiyati aytilgan. N.Iminjonovning "Baraka nima?"¹⁹ maqolasida barakaga erishning 11 sababi ko'rsatilgan. Z.Rahim va Odilxon qori Yunusxon o'g'illarining "Keng rizq va baraka omillari"²⁰ risolasida esa barakani rizq bilan bog'liq jihatlari haqida fikr yuritilgan. Ushbu maqola esa barakani qaerlarda bo'lishi va boshqa jihatlar haqidadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Yurtimizda barkamol avlodni shakllantirish jarayoni kechayotgan hozirgi zamonda, asl negizlari islomiy g'oyalarga, jumladan bu boradagi oyatlar, Payg'ambarimiz sunnatlari va dona xalqimizning purhikmat maqol va ma'tallarida ifoda etilgan ilmu-hikmat ko'p jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Shu ma'noda ularda ifodalangan g'oya va hikmatlarni o'rganish, saboq olish, bizni mukammallik sari etaklaydi.

Tahlil va natijalar. *Barakani qaerdan va qanday topsa bo'ladi?*

-Alloh. Avvalo barakani beruvchi va inom etuvchi fazl egasi Yaratganning o'zidir. Qur'oni karimda "Alloh buyuk fazl sohibidir"²¹. "Albatta, Alloh (fazli) keng, dono zotdir" (2:115) deyiladi. Bundan tashqari Qur'onda: "O'lamlarning Rabbi bo'lmish Alloh barakotlidir. (7:54). "Yaratuvchilarning eng go'zali - Alloh barakotlidir (23:14) degan oyatlar mavjud.

"Ey Robbimiz! Sening xayr va barakoting mo'ldir!... Ey Robbimiz! Sening xayr va barakoting ko'p buyukdir!"²², deyiladi virdlarda.

¹⁷ /azon.uz/content/views/barakaning-29-ta-omili.

¹⁸ Исоков О. "Баракa нима ўзи?". Old.muslim.uz. март 07.2019.

¹⁹ Иминжонов Н. Баракa нима?. Old.muslim.uz. июнь 07.2019.

²⁰ Зиёвуддин Раҳим, Одилхон қори Юнусхон ўғли. Кенг ризқ ва барака омиллари. -Т.: Тошкент ислом университети, 2011. -168 бет.

²¹ Қуръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири. / А.Мансур. -Т.: Тошкент ислом университети, 2009. 16-бет. Бундан кейинги оятлар ушбу асардан сура-оят тартиби кетма-кетлигида берилмоқда.

²² Баҳоуддин Нақшбанд. Авродул Боҳилия. -Т.: XILOL-NASHR, 2023. 8, 12-бетлар.

-Qur'oni karim. “(Ushbu Qur'on) to'qib chiqariladigan gap emas, balki o'zidan oldingi narsalarni (ya'ni, samoviy kitoblarni) tasdiq etuvchi, unga imon keltiradigan qavm uchun barcha narsalarni mufassal bayon qilib beruvchi hidoyat va rahmat (manbai bo'lgan bir Kitob)dir” (12:111). “Agar Alloh ne'mat(lar)ini sanasangiz, sanog'iga eta olmaysiz (16:18).

-farishtalar. “Olov oldidagi kishiga (Musoga) va uning atrofidagi zotlarga (farishtalarga) barakot bo'lsin!” (27:8).

-payg'ambarlar. “Unga (Ibrohimga) ham, Ishoqqa ham barakot berdik” (37:113). Payg'ambarimiz Sollallohu alayhi vassallamning muborak ismlaridan biri ya'ni “Sa'dul-xolq-barakotli, baxtiyor banda”²³ nomlarida barakotlik u kishiga xos fazilatlardan biri ekanligi aytiladi. Iso alayhissalom haqida fikr yuritilgan quyidagi oyatda: “Yana meni qaerda bo'lsam barakotli qildi...” (19:31) deyiladi.

-duo. “Yo Ali “Oyatul kursi”ni ko'p o'qigaysanki, uning har harfida ming barakat va ming yaxshilik bordur”, “Allohumma barik liyvaliummatiyfiy sabtiha va xamiysiha vaj'al zalika fiybukuyriha”. Ma'nosi: Ey bor Xudoyo, menga va ummatimga payshanba va shanba kunlari baraka ato et. Va o'shanday barakani erta tonglarda ham nasib et. “Allahumma barik liy fi hazihin-nahiyati va barik laha fiy nahiyatiy”. Ma'nosi: Ey bor Xudoyo, bu nohiyada menga baraka ber. Va mening nohiyamda unga (kelinga) baraka ber²⁴.

-barakali yil. Muchal tavqimi bo'yicha davriy yil 12 ta hayvonlarning: sichqon, sigir, yo'lbars, quyon, baliq, ilon, ot, qo'y, maymun, tovuq, it va to'ng'iz nomi bilan ataladi. Ulardan o'ninchisi bo'lgan tovuq yilining serxosiyat ekanligi shu nom bilan ataluvchi yilni qut-barakali kelishi bilan bog'liq talqinlar bor. Bundan tashqari zamonaviy talqinda kabisa yili fevralning 29 kun bo'lishi ham barakali yil sifatida qayd etiladi.

-ramazon oyi. Hijriy-shamsiy yil tavqimiga ko'ra jadiy oyi ham baraka oyi deyiladi.

-qadr kechasi. “Qadr kechasi ming oydan yaxshiroqdir”..., “U (kecha) to tong otguncha salomatlikdir” (97:3,5).

-tong. “Allohim ummatimning barakalarini tongda ber”²⁵.

-saxarlik. Imom Muslim Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qiladi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Saharlik qilinglar, chunki, saharlikda baraka bor”, deganlar”. Imom Tabaroniy Abu Sa'id Xudriy roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Saharlik to'la barakadir. Bir ho'plam suv bilan bo'lsa ham, uni tark etmanglar. Chunki Alloh va u Zotning farishtalari sahar xo'rlarga salavot aytadi”²⁶, deganlar.

-osmon va er. “Agarda (mazkur) yurtlarning aholisi imon keltirgan va taqvo qilganlarida edi, ular ustiga osmonlar va Erdan barakotlar (eshiklari)ni ochib yuborgan

²³Юқоридаги асар, 98-бет.

²⁴ Муҳаммад Алайҳис Саломнинг васиятлари. –Т.: Ўзбекистон, 1992. 7, 27 бетлар.

²⁵ Ризқ калитлари. –Т.: Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2007. 13-бет.

²⁶ Рамазон тақвими. 2014.

bo‘lur edik” (7:96). “Erning (Biz) barakatli qilib qo‘ygan mag‘rib va mashriqlariga kamsitilayotgan qavm (Muso qavmi)ni merosxo‘r qilib qo‘ydik” (7:137). “Dunyo yam-yashil va go‘zaldir. Kimki undan haqli ravishda halollik bilan olsa undan baraka topadi” (3:92).

-tog‘. “U (Erning) ustida to‘la to‘rt kunda tog‘larni (paydo) qildi va uni barakatli qildi hamda o‘sha (er)da uning emishlarini belgiladi (taqsimladi)” (41:10).

-masjid. “(O‘z) bandasi (Muhammad)ni, unga mo‘jizalarimizdan ko‘rsatish uchun (Makkadagi) Masjidi Haromdan (Quddisdagi) Biz atrofini barokatli qilgan Masjidi Aqsoga tunda sayr qildirgan zotga tasbeh, aytilur” (17:1).

-namoz. “Zero, tonggi o‘qish (farishtalar) hozir bo‘ladigan (namoz)dir” (17:78).

-yomg‘ir. “U (odamlar) umidsizlikka tushganlaridan keyin yomg‘ir yog‘diradigan va O‘z rahmatini (barokatini) keng yoyadigan zotdir” (42:28). “Biz osmondan barokatli suv (yomg‘ir) yog‘dirib, u bilan bog‘larni va o‘rib olinadigan donlarni undirdik” (50:9). Xalqimizda “Yomg‘ir baraka, qor rizq” degan naqli bor.

-xotin. “Xotinlarning barakatlirog‘i - sarf xarajatni kamroq talab qiladiganidir” (3:34).

-ot. “Baraka otlarning yollaridadir” (4:49). “... otning yollariga esa qiyomat kunigacha yaxshilik bog‘lab qo‘yilgandir” (4:83).

-qo‘y. “Qo‘y boqinglar, chunki u barakadir” (3:14). “Qo‘y – barakadir, tuya azizdir, otning yollariga esa qiyomat kunigacha yaxshilik bog‘lab qo‘yilgandir” (3:110). “Qo‘y – barakadir...” (4:83).

-non. Xandaqda urush payti bir dona arpa noniga baraka kelib, ming kishi to‘ygan²⁷.

-jamoat. “Aytildi: “Ey, Nuh! Bizdan (bo‘lmish) salomatlik va senga va sen bilan birgalikdagi jamolarga (atalgan) barokatlar bilan (kemalardan erga) tushgin” (11:48). “Allohning barokat qo‘li ko‘pchilik ustidadir” (4:120). Baraka - ko‘pchilikda (6:8). Birlikda baraka bor (6:8). Qur bo‘lmasa, qut bo‘lmas (6:162).

-uy-joy. Mehmon kelgan uy - barakali (6:84).

-halollik. “Dunyo yam-yashil va go‘zaldir. Kimki undan haqli ravishda halollik bilan olsa undan baraka topadi” (3:94).

-taom. “Taomning barakasi - undan oldin va keyin qo‘lni yuvishdadir” (3:66). “Taomni sovitibroq iste‘mol qilinglar, issiq-qaynoq taomda baraka bo‘lmaydi” (3:14). “Taom suzilgan laganning atrofidan englar, o‘rtasidan emanglar, zero o‘rtasiga baraka yog‘ilib turadi” (4:91).

-meva. Mevalarni qo‘shshalog‘i. Barakat - mag‘izda, Hunarli qo‘l - og‘izda. (6:69).

-muomala. “Xizmatchilarga yaxshi muomalada bo‘lish - barakadir”. (4:59).

-harakat-amal. “Sendan harakat, mendan barakat” (6:60). “Harakat, harakatda barakat” (6:181), “Barvaqt qilingan harakat, Hosilga berar barakat” (6:209). Bahorgi

²⁷Ахмад Ходий Мақсудий. Ибодати исломия. Муҳаммад алайҳиссаломнинг мўъжизалари. -Т.: Мовароуннахр, 2004. 29-31-бетлар.

harakat - kuzgi barakat” (6:209). “Vaqtli harakat - oxiri barakat” (6:209). “Yozgi harakat - kuzgi barakat” (6:247) kabi o‘nlab maqollarimiz bor.

-sadaqa. Rasululloh sallollohu alayhi vasallamga biror qavm sadaqa olib kelsa der ekan: “Ilohi, falon qavm ahliga barakatingni, rahmatingni yog‘dir”. (5:100). “Kishi sadaqa-ehson va muruvvat eshigini ochsa, tangri uning molu dunyosiga baraka ato etadi” (3:130).

-dehqonchilik. “Dehqonchilik qilinglar, chunki u barakali kasbdir” (4:9). “Dehqonchilik qilinglar, chunki dehqonchilik barakali ishdur” (3:20).

-savdo. “O‘zaro savdolashuvchilar to ajralishguncha ixtiyorlidirlar (savdoni buzish huquqiga egadirlar). Har ikkisi to‘g‘ri so‘zlab, mol aybini oshkora aytib savdo qilsalar, savdolari barakali bo‘lur. Agar yolg‘on gapirib, mol aybini yashirsalar, savdo barakasi yo‘qolur” (4:49).

-salom. Anas ibn Molikning rivoyat qilishicha, hazrat Rasululloh (SVA) shunday deganlar: “Ey o‘g‘lim, agar oilaning huzuriga kirsang, salom ber, sen uchun va oilang uchun baraka bo‘ladi”²⁸. “Ey o‘g‘lim, uyingga va qarindosh-urug‘ingnikiga borsang salomlash, bu salom senga va oila a‘zolaringga baraka ketiradi”²⁹.

-insof. Insof - sari baraka. Insofi borning barakati bor (6:44).

-inoqlik. Baraka - inoqlikda, Boqiylik - quvnoqlikda (6:159).

Xulosa o‘rnida yuqoridagi fikr-mulohaza asosida aytganda:

birinchidan, taomni birgalikda eyish; bismilloh bilan boshlash; ovqatning o‘rtasi; saharda va saharlik taom; taomdan oldin va keyin qo‘llarni yuvish; asal; sirka, sut, xurmo; rizqqa rozilik; tijorat; buyuklarda (yoshi ulug‘larda); qiz farzand; salom berish; duo; Qur‘on o‘qish; kelgan musofir; uyidan vaqtli chiqish; ota-onasiga xizmat qilish; Muhammad ismli uy; bomdod namozi; namoz; labzli kishi; non, xurmo, ot, tuya, yomg‘ir kabilarda baraka bo‘ladi;

ikkinchidan, qaynoq ovqat; qasam ichish; bolasiz uy; uyda chiqindilarni bo‘lishi; fosiq (yolg‘onchi) va sudxo‘rlarning daromadi; sababsiz er sotish; urush-janjal; qur‘on o‘qimaslik, ota-onani norizo qilish kabilar barakani etkazadi;

uchinchidan, barakani ko‘paytiradigan va uni yo‘q qiladigan amal va vositalarni adog‘iga etishga bandasi o‘jiz. Biz yuqorida bildirgan fikr-mulohazalar juz‘iylik kasb etib, batafsillikni davo etmaydi. Baraka haqida ayrim mulohazalarimizni bayoni bu shaxsiy mulohazalarimizdir, mavzuning asl mohiyati bundan yuz jhf ktng bo‘lib kelgusi tadqiqotlar hukmiga qoladi.

Yoshlarimizga milliyligimizni ifodalovchi baraka, labz, burd, xalolik kabi tushunchalarni chuqur o‘rganishni tavsiya etib qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur‘oni karim: ma‘nolarining tarjima va tafsiri. / A.Mansur. -T.: Toshkent islom universiteti, 2009.

²⁸ Абу Исо Термизий. Бойлик-нафсининг тўқлигидандир. “Маърифат” газетаси 2016 йил 27-май, № 43. 14-бет.

²⁹ Тоҳир Малик. Тилингни авайла. –Т.: “DAVR PRESS”, 2010. 71-бет.

2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Hadis. Al-jomi' as sahih" (Ishonarli to'plam). 2-jild. -T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997.
3. Axloq-odobga oid hadis namunalari. -T.: Fan, 1990.
4. Ming bir hadis. -T.: Movarounnahr, 1998.
5. Muhammad Alayhis Salomning vasiyatlari. -T.: O'zbekiston, 1992.
6. O'zbek xalq maqollari. -T.: Sharq, 2005.